

# Xushxabar: "Qizilqum fosforit kompleksi" O'zbekiston korporativ voleybol kubogi g'olibi

// 09.02.2026

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/xushxabar-qizilqum-fosforit-kompleksi-o-zbekiston-korporativ>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrdagi PQ-421-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Sport vazirligi, O'zbekiston voleybol federatsiyasi, Savdo-sanoat palatasi hamda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi tashabbusi bilan ijro etuvchi banklar, korxonalar va tashkilotlar o'rtasida 6-7-8-fevral kunlari voleybol bo'yicha O'zbekiston korporativ kubogi musobaqasi yuksak saviyada tashkil etildi.



Mazkur nufuzli musobaqa mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ish jamoalari o'rtasida o'zaro hamjihatlik va jamoaviy ruhni mustahkamlashga xizmat qildi.



Quvonarlisi, "Qizilqum fosforit kompleksi" MChJ jamoasi musobaqa davomida yuqori mahorat, qat'iyat va

jipslik namoyon etib, munosib ravishda faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.



"O'zkimyosanoat" AJ g'olib jamoani samimiy tabriklaydi va kelgusida ham yangi yutuqlar, bardavom muvaffaqiyatlar tilaydi!



